


MAHLIYO UMURZOQOVA

TUYG'ULAR ALANGASI



KITOBIM

BIRINCHI

0'z2

**Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kechiktirilmagan holda topshirilishi shart**

ilgarigi berilmalar miqdori _____


--	--

O'ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI
"IJOD" JAMOAT FONDI

MAHLIYOXON UMURZOQOVA

TUYG'ULAR ALANGASI

She'rlar



TOSHKENT
"ADABIYOT"
2020

Nashr uchun mas'ul:
Sirojiddin SAYYID,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi

Mas'ul muharrir:
Shodmonqul SALOM

Ushbu kitobda Mahliyoxonning samimiy ko'ngil egasi ekanligiga, vijdoni tozaligiga guvoh bo'lasiz. "Tuyg'ular alangasi" nomi ostida chop etilgan mo'jaz kitob o'quvchisini bepoyon vodiya olib o'tib, samimiy qishloqlar tomon yetaklaydi. Ko'ngil qa'ridan shalola kabi sizib chiqqan she'rlar o'z o'quvchisini topadi degan umiddamiz.

Ushbu kitob 2018-yili O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi o'tkazgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminarida nashrga tavsiya qilinib, "Ijod" jamoat fondi tomonidan moliyalashtirilgan.

ISBN 978-9943-6472-7-5



© M. Umurzoqova, 2020
© "Adabiyot", 2020

TUYG'ULAR ALANGASI

Birinchi kitobi – shoirning pasporti. Uni o'qigan o'quvchiga shoir haqida boshqa sharh, izoh kerakmas. She'r yangi ko'z ochgan buloqdek gap. O'ziga yo'l izlaydi, to'ladi, so'ng toshadi. Gap shu "buloq"ning manbasi naqadar katta yoki kichikligida. She'rning hayoti ham inson umriga o'xshab ketadi. U ham o'zi topgan, kashf etgan dunyoda o'zining mustaqil turmushini boshlayveradi. Yozayotgan odam savollariga javob izlayotgan bo'ladi doim. U har qanday savolning javobi o'zida bo'lishini ham teran anglaydi. Bu azal haqiqatni his qilmay turib she'r sayyorasiga yaqin kelib bo'lmaydi, she'r his qilinmaydi u holda. She'r bitayotgan kishi o'z quvonch-u og'riqlari, sog'inch-iztiroblari qog'ozga tomayotganini anglar ekan, u baxtiyordir. Shu tuyg'ularning qog'ozga ko'chishi ijodkor iste'dodini ko'rsatadi. Uning suvratini chizadi. Mahliyo Umrzoqova ham shunday ishga bel bog'lab turibdi.

Uning she'rlarida:

*Men quyoshga boychechaklar tutgan edim,
Barmog'imning uch-uchlari kuyib qolgan.*

Yoki:

Keyin bildim: Dunyo – terakzor,

Keyin sezdim: Vaqt yuguradi.

Men izlagan bolalik – qizim,

Qo'llarimdan ushlab turadi, – kabi satrlari kishiga yorug' umid ulashadi. Ko'ngliga sodiq bir shoironing tashrifidan xabar keltiradi. U so'z qo'llashga ehtiyotkorlik bilan yondoshadi. Shu bois she'rlari qisqa, aytar gapi aniq. Albat, har bir ijodkorda bo'lganidek, Mahliyoning yozganlarida ham goho tajribasizlik, shoshma-shosharliklar uchraydi. Ammo yoshlikning qudrati, samimiyati ko'p narsalarni yopib ketishini hisobga olgan holda, ilhom va ilm, hayrat va tajriba ijodkorning asl qanoti ekanini bilishini istardim. Quvonarlisi, qimtinib turgan shasht va jur'at. Va uning "Tuyg'ular alangasi" nomli ilk kitobiga jamlangan she'rlaridagi "o'zi kelgan", yurakni kesib o'tgan satrlari quvonchli. Shu kechmish unda qaytalayversin.

Shodmonqul SALOM,

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
shoir.

SHE'RIYAT

Ko'ksimdan bo'ylagan dardlarim
Tilimga ko'chmadi – sir bo'ldi.
Barmog'im titradi, yuragim
Shu kecha bir qadah she'r bo'ldi.

Ko'zingni mahv etdi ko'zlarim,
Nigohlar suhbatini bir bo'ldi.
Qarog'lar to'lishdi yoshlarga,
Bu durlar yig'ilib she'r bo'ldi.

Bir isyon tiladi yuragim,
Shu afg'on senmiding, she'riyat?
Qoshingda sig'indi yuragim,
She'riyat – eng go'zal bir niyat.

Men hurlar hasratin tingladim,
Tingladim qanotli so'zlarni.
Ko'rdim men Uvaysiy izini
Va ko'rdim yulduzko'z qizlarni.

Ilhomim boshimda soyabon,
Jonimga quvvat ber, she'riyat.
Yelkamdan ozgina suyabon
Shiddat ber, hikmat ber, she'riyat...

Chokidan so'kilsa gar ko'ngil,
To so'nggi nafasda der bo'lsam:
She'riyat – abadiy taskindir,
She'r yozsam, she'r yonsa, she'r bo'lsam.

ONAMGA

Ko'nglingizga boshlaydi har yo'l,
Barini his etdim, parvonam.
Siz bog'imsiz yashnagan so'lim,
Sizga borim berayin, Onam.

Navolarga aylanib bugun,
Boringizga shukr qilay man.
Yuragimni yoritar chiroq,
Ona, sizsiz nima qilaman?

Pastga qarab oqqanidek suv,
Bolam, deya yonib-kuyaman.
Ona, bugun bolamga boqib,
Mehnatingiz qadrin tuyaman.

Oybarchinim, ona lochinim,
Poyingizda payondoz jonim.
Sizga yo'ldosh bo'lay, farishtam,
Menga dildosh bo'ling, Onajon!

Duolaring – bir juft kabutar,
Qo'sh yelkamga kelib qo'nadi.
Ma'yusgina qizingiz birdan
Hayot sari quv nab jo'nadi.

Ona desam gullar chor-atrof,
Ona-Vatan, Vatan ham Ona!
Mehribonim, sizning qadringiz
Ona bo'lib bilyapman, Ona.

VATAN

Mana, qo'llarimda bir hovuch tuproq,
Mana, shu tuproqda ungan gul-rayhon.
Ana, osmonlarga yelka tutgan tog',
Mushfiq tandirlarda pishdi issiq non.

Vasfingni kuylaydi turnako'z buloq,
Ohanglari yetar ummongacha to.
Buyuk bobolarning ruhlari uyg'oq,
Yulduzlar jilvasi bergaydir sado.

Vatan, onam kabi mehrga boysan,
Vatan, otamdayin niyati baland.
Vatan, singlimdayin sohibchiroysan,
Vatan, akamdayin oriyatli, mard.


Bag'rimda ulg'ayar jajji niholim,
O'g'lim, lochinlarday uchgaysan ozod.
Sendan so'zlar kutib turgan shu aziz
Vatanni unutma, suygin umrbod.

YILLAR, YO'LLAR...

Dadam: "Ona qizim" deydilar,
Qarog'ida to'lib yoshlari.
Men buvimni eslatamanmi,
O'xshaydimi ko'zim, qoshlarim?

Bola edim, anglamas edim
Dadam sog'inch bilan boqishin.
Uzun ko'ylak, sochpopuklarim,
Soddaligim bilan yoqishim.

Yillar, yo'llar, sog'inch va hijron
Ko'zlaringiz quvonchdan nammi?
Dada, menga rostini ayting,
Men buvimni eslatamanmi?



Ona desam gullar chor-atrof,
Ona-Vatan, Vatan ham Ona!
Mehribonim, sizning qadringiz
Ona bo'lib bilyapman, Ona.

MASOFA

Jim turibman, so'zlamayapman,
Yuragimni yoqar hayajon.
Sizni qaydan topdim?!
O, shu dam...
Men o'zimni yo'qotdim tamom.

Tegmanozik va mag'rur edim,
Ko'nglimga hech yetmadi kuchim.
Cheksizlikka chorlasa samo,
Yuragimni ko'tarib uchdim.

Yuragimga yaqin edingiz,
Hayotimni yoritgan chaqmoq.
So'z aytishga bir baxya qoldi,
Men sevaman sizni qattiqroq.
Har kungidan boshqacha, ko'proq...



* * *

Bolalikni terakzorlarda
 Adashtirib kelganman o'zim.
 Endi esa uni axtarib
 O'tayapti bahor, yoz, kuzim.

Keyin bildim: Dunyo – terakzor,
 Keyin sezdim: Vaqt yuguradi.
 Men izlagan bolalik – qizim,
 Qo'llarimdan ushlab turadi.

KITOBLAR BAHSI

– Men yangiman, muqovam yangi,
 Shitirlaydi qanotim – varoq.
 O'chgan sening muqovang rangi,
 Sahifangga to'kilgan siyoh.

– Mendan kulmang, yo'q, havas qiling,
 O'qilganman sizlardan ko'proq.
 Qancha sevib o'qilgan bo'lsam,
 Yechiladi shuncha ko'p so'roq.

Kitoblarning bahsini tinglab,
 Oshib borar ajab hayratim.
 Eski bo'lsin yo bo'lsin yangi,
 Kitoblarga oshar hurmatim.

BAXT ISI...

Nur sizadi tog'lar bag'ridan,
 Uyg'onishar sezgir daraxtlar.
 Yumalab tushadi so'ridan
 Bag'ri bo'shab qolgan savatlar.

Saharda tandirga o't qalab,
 Munisginam mehr yopadi.
 Savatlar bag'rini to'ldirar...
 Har tong shunday qadr topadi.

Mudragan hovliga suv sepib,
 Uyg'otar erinchoq tuproqni.
 Mehr-la o'pgandek yuzidan
 Tong uyg'ota boshlar qishloqni.

Quyosh kelar oltin kokilli
 Olov yolli, uchqur qanotda.
 Taraladi shirin bir nafas
 Baxt isi keladi hayotdan.

BOLALIGIM

Bolaligim bolalikda qolib ketdi,
Hayot – to‘lqin, yot qirg‘oqqa olib ketdi,
Marg‘ilonda buvim kabi yo‘lim poylab,
Majnuntolning yelkalari tolib ketdi.

Dimog‘imda gul-lolaning bo‘yi qolgan,
Qulog‘imda kapalakning kuyi qolgan.
Men quyoshga boychechaklar tutgan edim,
Barmog‘imning uch-uchlari kuyib qolgan.

Anhorlarga hasratimni otgim kelar,
Onajonim halvolarin totgim kelar.
Beg‘uborlik bulog‘idan suv simirib,
Takror o‘sha damlarimga qaytgim kelar.



Kitoblarning bahsini tinglab,
Oshib borar ajab hayratim.
Eski bo‘lsin yo bo‘lsin yangi,
Kitoblarga oshar hurmatim.

MARG'ILONIM

Aziz vatan boshlangaydir ayvonidan,
Jannat bo'yi kelar gul-u rayhonidan,
Kunduzlar ham yulduz ketmas osmonidan,
Adrasingday tovlanasan, Marg'ilonim!

Marg'inoniy chiroqlarin yoqqan elsan,
Uvaysiyga mehr bergan tili bolsan,
Bolangga ham sizlab tumor taqqan gulsan,
O'zingga ham ko'z tegmasin, Marg'ilonim!

Kamalakka yetti rangni bergan chevar,
Qo'li qadoq, hayotsevar, mehnatsevar,
Dehqonlari paxta ekib, yulduz terar,
Qutlug' makon ham sharaf-shon,
Marg'ilonim!

Kumushingga izdosh bo'lib ketib qoldim,
"O'tkan kunlar" qanday kundir, endi bildim,
Oftoboyim, salomingiz eltib bordim,
Toshkan bilan bir tan-u jon, Marg'ilonim!

Otabekning bekligini sinab berdim,
Kumushbibi, yostig'ingga yig'lab ko'rdim,
Marg'ilonni tushda ko'rib sahar turdim,
Onam kabi muqaddassan, Marg'ilonim!

Ona, desam, borgin, bolam, xo'pmi dersan,
Mehring xuddi gulpaxtadek lo'ppidirsan,
O'zbekiston boshidagi do'ppidirsan,
Mahliyoman senga bugun, Marg'ilonim!

* * *

Qo'shtegirmon erur manov qishloq nomi,
Chindan ham qo'sh tegirmoni bormikan, yo...
O'z-o'zidan qo'yilmaydi joylar nomi,
Qo'shtegirmon borligi-chun qo'ygan birov.

"Tut tagi" deb ataganlar mahallamni,
Ul tutzorning ipaklari ko'kka yetgan.
Bolalikning tutzorlari yo'qdir, uni
Zamonaning oyboltasi kesib ketgan.

Bu diyorlar go'zal, dilda yo'qdir armon,
Lekin tutni o'ylaganda g'am chekaman.
Atlas kabi tovlanmoqda, ana, osmon,
Qishlog'imga bir kun kelib tut ekaman.

MANZARA

Qumga bag'rin bergan bolakay
Qizg'aldoqqa yotar ko'z tikib.
Nimagadir hafsalasi yo'q,
Qizg'aldoqdek boshini bukib.

Beparvodek tikilar ko'kka,
Qaldirg'ochga boqar bema'no.
Bolakayning qalbida, balki,
Yuksalmoqda o'zga bir dunyo.
Ammo buni hech kim bilmaydi,
Bola bunga parvo qilmaydi.

BEGIM

Ha, sevishni bilmaganim rost,
Deyolmasdim yurakka: "Sevgin!"
Yashash nima, o'rgangan, xolos,
O'n sakkizga to'ldi bir kelin.

Qo'lim tutib, yetaklaganim,
Ko'zim ochib ko'rganim – baxtim,
Kirib borib ertaklariga,
Yashayapman xotirjam va jim.

Muhabbatga aylandi bugun,
Muhabbatni yaratdim takror.
Gulg'unchamiz ulg'ayib gulgun,
Dunyolarga boqmoqda ilk bor.


Imlashadi fasllar turfa,
Men ularga boqmadim lekin.
Bahorlarni qildingiz tuhfa,
Qalbingizda gulladim, Begim!



Bir og'iz so'z...
Shuncha qiyinmi?
Imkonsizmi bir bor shivirlash...
G'ururingiz... ko'nglim o'yinmi?

So'zlaysizmi, termulaman jim
Fig'onimga biror sas qani?
Xo'rsinasiz... uning ismi kim?
Nahot, uning egasi menmi?

Tutqun qushday titraydi yurak,
Qarshingizda zorman, muhtojman.
Bir og'iz so'z... judayam kerak,
Keyin nafas ola boshlayman.
Balki, boshqa hayot boshlayman.



Beparvodek tikilar ko'kka,
Qaldirg'ochga boqar bema'no.
Bolakayning qalbida, balki,
Yuksalmoqda o'zga bir dunyo.


Ammo buni hech kim bilmaydi,
Bola bunga parvo qilmaydi.

Yuzlarimni silaydi bir his,
Sezmayapman xayollar bilan.
Yuragimda tug'ilgan tuyg'u
Titrog'imdan to'qiydi gilam.

Yo'llaringga to'shayin dilni
Tovonlaring o'pmoqlik uchun.
Ammo qanday bog'layin tilni,
Sevishimni aytmaslik uchun.

She'r chaqimchi, chaqib beradi,
Devorlardan mo'ralagandek.
Oshkor etar o'zini shunday,
Xuddi mendan o'pkalagandek.

Mayli, dildan quvay qayg'uni,
Lekin sira izhorni kutma.
Bir kun kelib o'sha tuyg'uni
Kashf etamiz – birga, unutma.




TONG QO'SHIG'I

Gunohlardan forig' emish oppoq tonglar,
Kechib qaro kechalarning o'tmishidan.
Yurak – sezgir, jimlikning ham so'zin anglar,
Sabolarga so'ylar kecha kechmishidan.

Maysalarning ko'zlaridan yoshin artib,
Quyosh nuri erkalardi havolarni.
Uyquchi dil shabbodaning kulgusidan
Ilg'ab borar bir munavvar navolarni.

Ishq niholin undirardi vujudida,
Yolg'on dunyo bu gullarni ko'rsa edi.
Uning kabi ozor topgan xasta dillar
Oq tonglarning labidan bol so'rsa edi...

Gunohlardan forig' emish oppoq tonglar...



BULOQ

Ming yil kerak emish bitta buloqning
O'z sirin olamga aytmog'i uchun.
Yana shuncha fursat kamlik qilarkan
Odamlar borligin anglamoq uchun.

Qancha bahor-u kuz, qancha yo'lovchi
Bu buloq yonidan o'tar, suv ichar.
Qay biri shukrona aytar Tangriga,
Qay biri iddao etigin yechar?..

Buloq – tabiatning totli kulgusi,
Tinglagan yurakda qolmaydi alam.
Uni anglamagan, bunga kelmagan,
Qo'shiqni sezmaydi kelganida ham.
Hayotni sezmaydi kelganida ham.

Ilujolar qilsang ham, mayli,
Yuragimdan o'tib bormayman.
Magar borsam, bor yolg'im olib,
Yuragimni tutib qolaman.



XOTIRA

Bardoshni sog'inchlar sindirib ketdi
Azim to'g'onlarni sel olganiday.
Tog'lar boshiga ham oq tushdi go'yo
Ayol xo'rsinadi g'ami tugamay.

Xotira qo'rini xomush titkilab,
Tig'laydi ko'ksini armonlar takror.
Umid marjonlari uzildi butkul,
Sen ham diydorimni qo'msadingmi, yor?

Ushalmas orzudek sening xotirang,
Charos ko'zlarimga singib ketadi.
Bilaman, yuragim oh ura-ura,
Barchasin jimgina yengib o'tadi.



Senga to'qnash keldim tasodif
 Nelarnidir berib qo'yibman.
 Ko'zlaringga boqmayman dedim,
 Nigohingni dilga o'yibman.

Kulgularing rostga o'xshadi,
 Nigohlarning so'zlari haqmi?
 Men o'zimni taniyolmadim,
 Seni qaydan taniyman, taqdir?

O'tinaman, kelma, tasodif,
 Xatolarga chiday olmayman.
 Sen yoningga chorlasang hamki,
 Endi men yoningga bormayman.

Iltijolar qilsang ham, mayli,
 Yuragimdan o'tib bormayman.
 Magar borsam, bor-yo'g'im olib,
 Yuragimni tutib boraman.

* * *

Kulgum...
 Kulgularim bilan yondirib,
 Nigohingga singib ketaman.
 Senga zarra ehtiyojim yo'q,
 Men endi ketaman, ketaman...

Qayg'um...
 Qayg'ularim beadoq yo'ldir,
 Pushaymondan o'zga choram yo'q.
 Meni ko'kka chorlaydi kimdir,
 Bormayman, yo'q, yo'q, yo'q.

Yig'im...
 Bo'g'zimni to'ldirar bir og'riq,
 U ham senga yotdir hoynahoy,
 Ko'zyoshimdan erib ketyapti
 Samodagi ko'ngli yarim oy.

Sevgim...
 Sevgi haqqi! Aytmayman!
 Sabot bilan tishlab labimni.
 O'zing sezgin, tinglab tushungin
 Yig'im, qayg'um, kulgularimni...

ILTIJO

Qanoat ber, bergin bardosh, kuch,
Yelkalarda sobit bo'lsin burch,
Uchmoq kerak bo'lsa, intil, uch,
Osmon qadar yurak ber, Rabbim!

Afsonami o'sha Oynako'l?
Xayolotga cho'kkanmidi dil?
Meni kutib charchadimi yo'l?
Yaxshilikdan darak ber, Rabbim!

Ishq bilan baxt birligi – visol,
Ko'zim – daryo, ketmagay uvol,
Orzum oppoq kabutar misol,
Tiriklikdan tilak ber, Rabbim!

Yo'lovchiman – tuganmas yo'li,
Ohudirman – xatarli cho'li.
Oqqush bo'ldim, ajdarli ko'li,
Menga o'zing ko'mak ber, Rabbim!

MUHAMMAD YUSUF

Bisotini kapalakka almashtirgan,
Hayot bilan kamalakni adashtirgan.
Sodda so'zi ko'zimizni qamashtirgan,
El baxtiga shunday shoir etdi nasib,
Muhammad Yusuf.

Tanti og'am, kengfe'lshoir va mardona,
She'rlaringiz buncha toza va xalqona.
Yurtning kezi, yurtning suyib oshiqona,
El baxtiga shunday shoir etdi nasib,
Muhammad Yusuf.

Yurtning borin, elning orin baland tutib,
Mag'rur turib, ginalarni jim unutib.
Bor umrini She'r poyiga gulday tutib
El baxtiga shunday shoir etdi nasib,
Muhammad Yusuf.

Ko'klam kelsa adirlarda, bir qizaloq –
Kulib turgan yonoqlari ho'l qizg'aldoq,
Sog'inadi bir shoirni eslab shundoq:
El baxtiga shunday shoir etdi nasib,
Muhammad Yusuf.

DO'RMON

Men eshitdim gulg'unchalarga
Shabbodaning shivirlashini.
Butog'idan uzilib uchgan
Yaproqlarning shitirlashini.

Saharlarda erkalar yellar,
Yuragimdek bezovta bir qush.
Xotiramni bezab boradi,
Do'rmon, senda kechayotgan tush.

Do'rmon, qanday tonglaring bordir,
Oqshomlaring bordir jim, sokin.
Yuragimning chiltorin chertgan
So'z sehrida uyg'ondim bu kun.

Do'rmon, tonglaringda bir tutam,
Oq orzuni tutib oldim men.
Navoiydek yuksaldi quyosh
Shu bobomni kutib oldim men.

Botiningga singib boradi
So'zning sirli qadam otishi.
Hislarimga hayrat o'radi
Kapalakning gulni totishi.

Sehrgar so'z, so'zga maftunlar,
Gul, gul uzra loldir kapalak.
Go'zallikni yozib bo'lmaydi,
Yo'q, chizib ham bo'lmasa kerak.

Ko'nglim – ko'kda kabutar,
Kengliklardan emar nur!
Xayolning qanotida
Suzib boradi masrur.

Qanotim shamoliga
Ergashadi qo'shiqlar.
Suluvlar kulgusidan
Esdan og'ar oshiqlar.

Tuting mening qo'limdan,
Menga hamroh do'st kerak.
Yurakka qaytmoq uchun
Olov kabi so'z kerak!



MUHABBAT

Qayga ketding bag'rim kuydirgan,
Nedan ranjib ketding, muhabbat?
Ehtiroslar topdimi yakun,
Nahot, oxir bo'ldimi suhbat?

Qolgani shu tilsiz xazonlar
Izimizda, izlarimizda.
Kuzgi osmon uzra adashgan
Turna – ko'zyosh ko'zlarimizda.

Hijron, buncha achchiq azobsan,
Nahot, yo'qmi o'tmishimga yo'l?
Yulduzlarga sir aytay desam,
Ularning ham kipriklari ho'l.

Qayga ketding, aziz iztirob...



QOYALARGA

Ulug' tog'ning bag'irlarida
Yayov kezdim – ruhim yayratdim.
Sokinlikning nolasin tinglab,
Dil – bulbulim tinmay sayradi.

Tik qoyaga termulgan chog'lar
Yuragimda uyg'onar vulqon.
Yer sharining ildizi – tog'lar,
Hayratini yashirmas osmon.

Huv, haybatli qoya labida
Mag'rur bir qush uchar muttasil.
Shu tog'larni akamday ko'rdim,
Bo'lgim keldi ularga singil.

BAHORGA AYLANDIM

Ona! Bahorlarga aylandim, rosti,
Yog'dularga ko'mdi oyning nigohi.
Bugun yuragimning tagida turib,
Ko'ksimga tepadi farzandim gohi.

Ona! Bahorlarga aylandim, rosti,
Nigohimdan o'chdi kuzning dog'lari.
Yugurib o'tyapman, ortimdan boqar
Gullab borayotgan Toshkent bog'lari.

QIZIMGA

“Olti yoshdan yig’sang ortadi,
Yetti yoshdan yig’sang yetarkan”.
Ko’zim yumib ochgunimcha to,
Qizim o’n sakkizga yetarkan.

Gohi topdim, goh bo’ldim judo,
Har fursatim, har onim taqdir.
Shunday ulug’ ne’matni Xudo
Menga nasib etganing baxtdir.

Yetti yoshni to’ldirar qizim,
Yuzlarida balqib turar oy.
Yaxshi niyat bilan sep yig’moq
Hayotimga qo’shmoqda chiroy.

Ulg’ay menga bo’ydoosh bo’lib sen,
Yuzlaringga hayot berar zeb.
O’n sakkizga yetguningcha to,
Ezgulikdan yig’ay senga sep!

TUN

Sukunat choyshabi jiqqa ho'l bo'lmish,
 Soyni shaloplatib cho'miladi oy.
 Kechaning ko'kdagi marvaridlari
 Ushbu nafosatga qo'shadi chiroy.

Shu munir oqshomda seni esladim,
 Yuragimni tildi achchiq iztirob.
 Ko'zimdan yulduzdek tomdi hislarim,
 Qaydasan, azizim? Javob ber, javob...

Zulmatni poralab borar to'lin oy,
 Poralanib borar oshiq yuragim.
 Olamda borligim bilmadingmi sen,
 Yetib bormadimi, asov tilagim!

Balki, unutmagan o'tli hislarim,
 Asli begonadir senga bu alam!
 Aytgin, ko'ryapsanmi huv yulduzlarni,
 Tuyyapsanmi tunning ovozin sen ham?

Bildingmi, nedan ho'l sukut choyshabi?
 Bilmaysan, bilganlar Xudoga yaqin.
 Mening hayotimning kechalarini
 Shul sabab yoritar ishq degan chaqin.

AYOL

Bahor seni ko'rgani keldi,
Kulguchingda tunar emish oy.
Ko'ksingdagi mehr-muhabbat
Dunyolarga bermishdir chiroy.

Ayol, sening izingdan boqib,
Mastona kuz elaydi barglar.
Sen vafo-la yurib o'tganda
Sog'ayadi qish degan dardlar.

Ayol, mehring yozga bir tuhfa,
Isinadi sovqotgan olam.

Ayol, sening to'rt tomoningda
Charx uradi muborak kalom.

Qadim turmush tegirmoni ham
Yuragingga tegib aylanar.
Kimki seni ardoqlay bilsa,
Keyin odamlikka saylanar.

TAASSUROT

Kasalxonada bir ayolni ko'rgan edim...

Ko'zlaringda kechani ko'rdim,

O', zim-ziyo g'amga to'lgandi.

Jonim yalab o'tti bir hasrat,

Ko'zlarimda ko'zyosh aylandi,

Ko'zlaringda kechani ko'rdim.

Titramagin, ozorlanmagin,

Boqqin bolang munchoq ko'ziga.

Shunda orom qaytadi tag'in,

Halovati qaytar o'ziga,

Ko'zlaringda ko'rdim dunyoni.

Xo'rsinmoq ham kerakdir ba'zan,

Goho shartdir yig'lash, tozarish.

Shunda rangin ko'rasan uni...

Sen o'zgacha ko'ra boshlaysan

Sirga to'lgan bedil dunyoni.

Bildingmi, nedan ho'l sukut choyshabi?

Bilmaysan, bilganlar Xudoga yaqin.

Mening hayotimning kechalarini

Shul sabab yoritir ishq degan chaqin.

BAHOR

Olis o'lkalarda shivirlagan tush,
Pichirlagan kurtak, oq ko'ylak bodom.
Qanday eriganin sezmay qoldi qish,
Bir tunda o'zini yo'qotar olam.

Tiniq samovatda yayraydi qushlar,
Toshqin anhorlarda oqadi shodlik.
Sening quchog'ingda o'tgan kunlarim
Qanchalar shirindir, qanchalar totlik.

Bahor – ko'zlarimda gullagan ilinj,
Bahor – kipriklarda qiqirlagan yosh.
Umid-la ko'klarga bo'y cho'zar sevinch,
Olamga sezdirmay singadi quyosh.

Endi yuragimda ungay boychechak,
Muz ketgan yerlarning yuzini silab.
Endi bahor bilan uyg'onish kerak,
Mehribon zaminning baxtini tilab.
Samo ham turadi quvonchdan yig'lab...

O'TINCH

Ko'zlaringga termulmagin jim,
Sherik bilmam tuyg'ularimga.
O'ylarimda aylanma endi,
Yupanch bo'lma qayg'ularimga.

Xalal berma derazalardan
Boqsam olis dovonlarimga.
Chiqaverma noxos yo'limdan,
Tikon bo'lib tovonlarimga.

Ket, qalbimdan, ket hayotimdan,
Xotiramdan tush kabi o'tgin.
Ko'tarilgin butkul yodimdan,
Unutay men, sen ham unutgin.



IQROR

O'z-o'zimcha umr yo'lin tanladim-u,
So'ng alamdan yuragimni tilib oldim.
Izhorlarin yolg'onligin angladim-u,
Ich-ichimdan sevishimni bilib qoldim.

Sevgi degan saroblardan bezgan edim,
Endi umrim ro'yoblarga ko'chib borar.
Yuragim-la suhbat qilib oldim bugun,
Nimalardir xotiramdan o'chib borar.

O'chib borar, ko'chib borar yuragimdan,
Tanish-u yot tuyg'ularning ovozası.
Mard bo'l, yurak, endi ortda yo'l yo'q senga,
Ochilmaydi o'tmishingning darvozasi.

Men hayotda o'z yo'limni tanladim-u,
So'ng alamdan yuragimni tilib oldim.
Izhorlaring yolg'onligin anglaganda
Ich-ichimdan sevishimni bilib qoldim.

SEVGIM BORDIR

Tuyg'ulardan boshqa tanish-bilishim yo'q,
Muhabbatdan boshqa mening yumushim yo'q.
Olmosim yo'q, oltinim yo'q, kumushim yo'q,
Faqatgina sevgim bordir yuragimda.

Sizga umid bermoq uchun umidim yo'q,
Dildan boshqa bir qadam ham, bir odim yo'q,
Yo'q narsani bor qilguvchi omadim yo'q,
Faqatgina sevgim bordir yuragimda.

Hayot goho mensimaydi tuyg'ularni,
Tan olmaydi nola birla oh-vohlarni,
Men o'zimga yo'ldosh qilay ohularni,
Faqatgina sevgim bordir yuragimda.

Armonlarga aylanmagan bayotlarga,
O'zim fido aylay adabiyotlarga,
Men borimni tuhfa qildim hayotlarga,
Qizg'onish yo'q, havas bordir yuragimda.

Faqatgina sevgim bordir yuragimda...

OY QIZ

Samolarda uchgan qiz,
Oyga ko'ngil bergansiz.
Orzu qilgan-u, ammo
Ozgina kechikkan qiz!

Yuzingizda gul izi,
Rayhon isi, hur isi,
Boshingizga baxt qushi
Qo'nganin bilmagan qiz.

O'tirgan qiz o'rnini
Topar ekan, qizlarjon.
Baxt o'margan o'g'rini
Topar ekan, qizlarjon.

Osmonlarda uchgan qiz,
Oyga ko'ngil bergansiz.
Orzu qilgan-u, ammo
Ozgina kechikkan qiz,
Aslo kechikmagansiz.

HIJRON KO'PRIGI

Zuvillab yonimdan o'tayotgan vaqt,
Mohir chevar kabi yamar o'tmishni.
Meni uzoq kutdi dovonda bir baxt,
Men esa bilmadim unga yetishni.

Kipriklarim go'yo uzun bir ko'prik,
Undan o'tmoq uchun topa qol bardosh.
Bu uzun ko'prikdan o'tmading hech sen,
Undan o'taverdi achchiq-achchiq yosh.

Hayot goho menim yolg'izlikni,
Tan olmaydi nola dila bil-vonlatib,
Men o'zimga yolg'izlikni, baxt o'zimga,
Faqatgina sevgim bordir yuragimda.



Armonlarga ayatmagan hayotlarga,
O'zim fido aylay adabiyotlarga,
Men borimni tulla qilgan hayotlarga,
Qizg'onish yo'q, havas bordir yuragimda.

Faqatgina sevgim bordir yuragimda...

Yo'llarim bir Yo'lga ketdi tutashib,
Ko'zlarim ko'zyoshning qo'lidan tutdi.
Samoda qilichday yaltiradi oy,
Men kutgan yulduzim olisdan o'tdi.

Goh o'ksib, goh kulib boqdim yo'liga,
Layliday sarg'aydi ko'nglim chechagi.
Qanday ovutolsin siyoh ko'ngilni
Uzoqlashib ketgan ishqning ertagi.

Yo'q, o'ksinmoq bekor! Garchi hijron bor,
Garchi vujudimda o'chmay qoldi cho'g'.
Ha, men baxtiyorman. Dil ishqqa to'la,
Qancha gumroh buni bilgani ham yo'q.



JIMLIK

Jimlik – shovqinlarning ko'ryotgan tushi,
 Nozik barmoqlarni o'par harorat.
 Ruhimga qo'nyapti halovat qushi,
 Samoda suzadi hassos tilovat.

Ufqlar rangiga bo'yalgan huzur,
 Sahrolar bag'rida changigan xayol.
 Bir zum dimog'imda muzlagan g'urur,
 Menga qardosh bo'lgan pokiza ayol.

Jimlik – sog'inchlarning alamli tushi,
 Tog'larning poyida ulg'ayar viqor.
 Orzular, niyatlar, sertashvish turmush,
 Meni rom aylaydi bir jo'mard iqrar.



YURAK BILAN SUHBAT


I

Bugun ko'nglim to'ldi sendan, yuragim,
Sevgi janggohidan qaytolding omon.
G'amg'usor ohingni tinglash - tilagim,
Bu tun diydoringni sog'indim yomon.

II

Odam o'zini ham sog'inar gohi,
Ko'rgisi keladi borin boricha.
Mana, oshiq edi mening yuragim,
Dardini tinglayman... tonggacha.

Yomg'ir ham boshladi, qanday soz,
Zulfimni o'ynadi bir sabo.
Dil menga, men unga aytdik roz,
Boringga ming shukr, yo, Olloh!
Yuragim sog' ekan, yo, Olloh!



MAKTUB

Ona, qizing ulg'aydi bugun,

Bir lahzada buni ilg'adim.

Paxsa devor ortida qolmish

Bolalikni eslab yig'ladim.

Ona, esgan erka shamolda

Arg'imchog'im silkinib turdi.

U bo'sh emas ekan, qarasam

Bolaligim uchyapti – ko'rdim.

Bugun kelin bo'ldi arazchi,

Ham erkatoiy qizingiz, ona.

Hayot qo'li qattiq muallim,

Ro'paramda shunday darsxona.

Baxtim shulki, baxtim tanidim,

Etagidan mahkam tutdim men.

Ona, senga erkatoiy edim

Endi baxtli ayol bo'lay men.




ERKA HIS

Erka xayollarning bandargohida
Erka hislar bilan suzib yuraman.
Orzular ufq sari yetgan chog'ida
Baxtni marjon kabi tizib turaman.

Erka tuyg'ularga boylanib bu dam,
Ozod hayrat bilan erkni quchaman.
Maysa qulog'ini cho'zgan yomg'irman,
Atirgul bandiga ko'chaman.

Erka yaproqlarning kaftiga tushib,
Erka shabnam bo'lib porlab turaman.
Orzularning issiq taftida pishib,
Quyoshning yoniga chopib boraman.



Ba'zan sokinlik kerak,
Kerak ba'zan sukunat.
Shunga yurdim qasdma-qasd
Vaqtga teskari qarab.

ORZULAR

Asli, orzulardan yuksaldi osmon,
Orzu bulog'idan tuyganman men ham.
Qo'llarimga orzu niholin tutgan,
Biri otam bo'lsa, birisi onam.

Orzuni qanotga o'xshatgan ilk bor
Kim bo'lsa, shubhasiz, vallomat shoir.
Mening orzularim tuproqdan o'sgan
Orzuimga quyosh aytib o'tar sir.

Otam matonatning jonli surati,
Mehnatda suyagi qotgan aziz zot.
Butun irodamga chizib jur'atin
Parvoz etar bo'lsam, baxsh etgan qanot.

Onamning duosi qo'rg'on, shubhasiz,
Ko'ksimda elimning shoni-shuhrati,
Ona vatan deyman, ota yurt deyman,
Ota-onam hamda Vatan hurmati.

* * *

Dilda ne bor, tushundim,
 Chaqmoqman osmon qadar.
 Atay yurdim qasdma-qasd
 Vaqtga teskari qarab.

Ruh ko'zimga ingan nur,
 Qarib borar ichimda.
 Yel uchirgan shuurim
 Aylanmoqda kuchimga.

Isyon bordir ko'nglimdan
 Qarochiqlaringacha.
 O'zimga sig'may uchdim
 Qaro ochunlarida.

Ne yo'qotdim, ne topdim
 Hayot dengizlaridan?
 Qirg'oqqa sig'may qoldim
 Ruhim kengliklarida.

Ba'zan sokinlik kerak,
 Kerak ba'zan sukunat.
 Shunga yurdim qasdma-qasd
 Vaqtga teskari qarab.

MUNDARIJA

Shodmonqul Salom. Tuyg'ular alangasi.....	3
She'riyat.....	5
Onamga.....	6
Vatan.....	7
Yillar, yo'llar.....	8
Masofa.....	9
"Bolalikni terakzorlarda...".....	10
Kitoblar bahsi.....	10
Baxt isi.....	11
Bolaligim.....	12
Marg'ilonim.....	13
"Qo'shtegirmon erur...".....	14
Manzara.....	14
Begin.....	15
"Bir og'iz so'z...".....	16
"Yuzlarimni silaydi bir his...".....	17
Tong qo'shig'i.....	18
Buloq.....	19
Xotira.....	20
"Senga to'qnash keldim tasodif...".....	21
"Kulgum...".....	22
Iltijo.....	23
Muhammad Yusuf.....	24
Do'rmon.....	25
"Ko'nglim - ko'kda kabutar...".....	26
Muhabbat.....	27
Qoyalarga.....	28
Bahorga aylandim.....	28

Qizimga.....	29
Tun.....	30
Ayol.....	31
Taassurot.....	32
Bahor.....	33
O'tinch.....	34
Iqror.....	35
Sevgim bordir.....	36
Oy qiz.....	37
Hijron ko'prigi.....	38
Taskin.....	39
Jimlik.....	40
Yurak bilan suhbat.....	41
Maktub.....	42
Erka his.....	43
Orzular.....	44
"Dilda ne bor, tushundim...".....	45

UO'K: 978-9943-6472-7-5

KBK: 83.3(50'zb)

Φ 14

Φ 14 **Umurzoqova, Mahliyoxon.**

Kaftdagi yo'l [matn]: *she'rlar*/ M.Umurzoqova.

– Toshkent: "Adabiyot" nashriyoti, 2020. – 48 b.

Adabiy-badiiy nashr

Mahliyoxon UMURZOQOVA

TUYG'ULAR ALANGASI

She'rlar

Muharrir: *D. Mingboyeva*

Badiiy muharrir: *F. Ermatov*

Sahifalovchi: *N. Soatov*

Musahhih: *Sh. Hakimova*

O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi

"ADABIYOT NASHRIYOTI" MCHJ

Nashriyot litsenziyasi: AI № AA 0043. 27.01.2020.

100129, Toshkent shahri, Markaz-15. 1/90.

☎ (98) 128-30-04. e-mail: mashkhur-press@mail.ru

Bosishga 20.11.2020-yilda ruxsat etildi:

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 70x90 ¹/₃₂.

Ofset bosma. Hisob-nashriyot t. 1,5.

Adadi: 10000 nusxa. Buyurtma №340.

"AZMIR NASHR PRINT" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

100200, Toshkent shahri, Adham Rahmat ko'chasi, 10-uy.



MAHLIYO UMURZOQOVA

TUYG'ULAR ALANGASI

Mahliyo Umurzoqova 1990-yil Farg'ona viloyati Marg'ilon shahrida tug'ilgan. Toshkent Gidrometeorologiya kasb-hunar kollejini tamomlagan. Hozirda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti "San'atshunoslik" fakulteti 2-bosqich talabasi. 2018-yilda o'tkazilgan Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminari ishtirokchisi.

"ADABIYOT"

NASHRIYOTI

ISBN 978-9943-647-2-5



9 789943 647225